

Said Ahmadning “Qorako’z majnun” hikoyasida sof insoniy tuyg’ular ifoda talqini

*Sobirova Qumrixon Odiljon qizi
Andijon Davlat chet tillari institut
Fan oqtuvchisi: Ganiyeva Toxira*

Annotasiya: Maqolada atoqli adib Said Ahmadning eng mashhur asarlaridan biri hisoblanmish “Qorako’z majnun” hikoyasi, undagi obrazlar tizimi; o’zbekona milliy xususiyatlar, kishilar o’rtasidagi samimiy munosabatlar; o’zlikni, imonni saqlash, uning haqiqiy insoniy tuyg’u sifatidagi ahamiyati haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: Saodat aya, Qumrixon, Bo’rixon, it, din, diyonat, chaqaloq kiyimlari.

Said Ahmad mohir nasr ustasi, qalami o’tkir dramaturg, bir-biridan ajoyib hikoyalar muallifidir. U yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan asarlari bilan o’zbek milliy adabiyoti rivojiga salmoqli hissa qo’sha olgan ,o’z so’ziga, o’z uslubiga ega ijodkor sanaladi. Uning asarlari bir olam hayajon, serjilo hissiyotlar, tuganmas his- tuyg’ular, qalbingizga chuqur kirib boruvchi eng oliy muhabbat, mehr bilan birga o’qiladi.

Ana shunday hikoyalardan biri “Qorako’z majnun” hikoyasidir. Asarni mutolaa qilishga kirishar ekansiz, beixtiyor epigraf sifatida keltirilgan hadisi sharif diqqatimizni tortadi: “Jannatga kiradigan o’n nafar hayvondan biri Ashobi kahfning vafodor itidir” Xo’sh, nima uchun aynan it? Asarning kirish qismlaridan Saodat aya bilan tanishamiz. Erta tong. Bomdod namozidan so’ng joynamoz ustida rahmatli cholini, o’rus yurtida qolib ketgan o’g’li Bo’rixonni, farzandsizligi tufayli yosh umri xazon bo’layotgan qizi Qumrixonni uzundan- uzun duo qiluvchi Saodat aya. Bir umr xokisorlikda umr kechirgan, xudojo’y, mo’mina , mushtipar kampir. O’ris

yurtiga borib gap topib kelgan nabirasining gaplaridan yuragi bir uvushgan bo'lsa-da, farzandiga nisbatan ishonchni , muhabbatni yo'qotmagan mehribon ona. Oilaning bir a'zosiga aylanib qolgan itiga ham samimiy munosabatda bo'lувчи bu ayol o'g'lining bir kuni qaytib kelishini orziqib kutadi. Saodat ayaning yillab qalbida saqlab kelgan armonlarini tarqatadigan, ko'ksini tog'dek bosib yotgan umidlarini yuzaga chiqaruvchi o'g'li Bop'rixon kirib keldi. Lekin bolalikda ne umidlar bilan katta qilgan jigarbandi butunlay boshqa holatda, tamom boshqa inson qiyofasida edi. Qandaydir notanish inson qiyofasidagi begona hid kelayotgan ro'pasidagi ushbu odam bu qishloqqa , bu yurtlarga, bu odamlarga, hatto o'z onasiga begona edi. Tong payti o'g'lining cho'qinishiga ko'zi tushib qolgan kampir hamma narsani tushunib yetdi. Farzandi hafaqat ularga, hatto o'z diniga, o'zligiga, imoniga xiyonat qilgan edi. Kampir bir lahzada hamma narsadan- farzandining bolalik xotiralaridan, u bilan bo'g'liq hamma orzu-umidlardan voz kechishni istadi. U hamma narsani unutishi, hammma narsaga ko'z yumishi mumkin edi, lekin imonidan,o'zligidan voz kechgan o'g'lini hech qachon kechira olmas edi. Buning natijasi o'laroq, Bo'rixonning bolalikdagi yaxshi umidlar ila saralab to'plagan chaqaloq kiyimlarini hovliga olib chiqib yoqdi. Bu olov bilan kampirning butun orzu- umidlari bir lahzada kuyib kulga aylandi. Shuncha yillar jon nafasida saqlagan orzular sarobini ko'tara olmagan kampir ertasi kuni jon berdi...

Asardagi yana bir obraz darajasiga ko'tarila olgan qahramon it obrazidir. Kampirning har yurish yo'llarigacha yod biluvchi bu it uning sadoqatli hamrohidir. Kampirning ko'z qarashlaridan hamma narsani ilg'ab oluvchi , uning tergashlarini erkalashday qabul qiluvchi bu it bizning qalbimizda ham samimiy tuyg'ularni uyg'ota oladi. Kampirning o'limidan keyin ham ini bir lahza yoddan chiqarmay, uni tinimsiz izlaydi, hamma joyga borib keladi,lekin kechqurunlari hech qayerga ketmay Qumrixonni qo'riqlab chiqadi. Shu paytgacha uni yomon ko'ruchchi, goho uni urib ham kelgan Qumrixon uning ko'zlari to'la yoshni ko'rib o'zini tuta olmay it bilan birga

uzoq yig'laydi. Navbatdagi qidirishlari natijasida kampirning tovushini eshitgan it xursandligidan bor ovozi bilan vovullay boshlaydi. Ko'p qavatli uylarning birida yasovchi kishining otgan o'qidan halok bo'ladi. Sadoqat , mehr- oqibat tushunchalarining eng oliv namunasi emasmi bu aslida?! Gohida jon jigarbandingdan topa olmagan samimiylikni, mehrni, muhabbatni tilsiz bir hayvon ifoda eta oladi-ku,biz esa ojizmiz...

Asardagi muammoli obraz bu- Bo'rixon. Havoyi his-tuyg'ulari asiriga aylangan bu inson muhabbat yo'lida hamma narsadan voz kechdi- otanasadon, oilasidan, jonajon qishlog'idan, bolalik xotiralaridan, yurt, vatan bilan bog'liq o'tmishidan , o'z dinidan. U bu muqaddas tuyg'ulardan juda oson voz kecha oldi. Vataniga qaytgan vaqtda ham onasi bilan samimiy suhbatlasha olmadi, onaning qalbidagi yillar davomida saqlanib kelgan sog'inchlarni anglay olmadi. Nima uchun? Nega u bu qadar hamma narsaga befarq insonga aylanib qoldi? Saodat ayaning butun vujudini kemirgan eng katta azob aslida shu edi. Kampir hamma narsada o'zini ayblaydi, u qayerda xato qildi, farzand tarbiyasida qanday kamchikka yo'l qo'ydi? Aslida, kampirning hech qanday aybi yo'q. Inson asosiy tarbiyani yon- atrofdan ham oladi. Kampirning o'limiga , tom ma'noda , Bo'rixon aybdor. Saodat aya yuksak bir armon, azob bilan jon berdi.

Asar badiiylik nuqtayi nazaridan pishiq, puxta, mukammal tarzda yaratilgan. Ijodkor o'zi to'g'ri deb bilgan tushunchalarga kitobxonni ishontirib o'tirmaydi. Hikoyani o'qish davomida qalbingizda paydo bo'lgan his- tuyg'ular sizga haqiqiylari haqida saboq beradi. Sizni o'ylantiradi, chuqr o'y- tashvishlarga ko'mib qo'yadi. Saodat ayaning o'limi qalbingizni kemiradi, yuragingizda og'ir bir dard paydo bo'ladi. Itning o'limidan keyin esa ko'z yoshlarni to'xtata olmaysiz. Saodat aya ning o'limi bilan bog'liq og'riqlar qorako'z majnun o'limi bilan uyg'unlashib ketadi. Aslida shu emasmi, yozuvchining buyuk mahorati, tengsiz iste'dodi?

It va Bo'rixon obrazlari qiyosan tasvirlanishi ham asar salohiyatini yanada ko'tara olgan. Bir tarafda insonlik qiyofasidagi, lekin odamiylik his-

Modern education and development

tuyg'ularidan begona bir kimsa. Ikkinchisi tarafda esa hayvon qiyofasidagi, lekin vujudi sadoqatga, mehrga limmo-lim to'la hayvon obrazi.

Biri bari narsadan voz kechib, tuqqan onasidan tonib ketgan inson qiyofasidagi bir mahluq.

Ikkinchisi sadoqatidan bir daqiqa ham voz kechmagan, ana shu sadoqati o'limiga yetaklab borgan bir hayvon.

Asar yuksak bir dard bilan o'qiladi. Insonning haqiqiy insonlik qiyofasi aslida nimada ekani to'g'risida chuqurroq o'ylab ko'rishga, mushohada yuritishga majbur qiladi.

Xulosa qilib aytsak, asar katta bir dardning salmoqli yukini ko'tara olgan sof his-tuyg'ularning haqiqiy ifodasi aks etgan beba ho san'at asaridir! Bu hikoya Said Ahmad ijodining naqadar sermahsul ekanligini, yozuvchi uslubining sodda, shu bilan birga, o'ziga xos uslub ifodasiga ega ekanligini yaqqol namoyon eta oladigan asar namunasidir!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Arboblar.uz. internet sayti.
2. Said Ahmad. Qorako'z majnun. "Sano-standart" nashriyoti. 2018-yil.
3. Kitobxon.Com. internet sayti.